

Mis damli va zarbli cholg'ular



Orkestrda har bir cholg'u muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrimlari kuyni ijro etsa, boshqalari ritmni hosil qiladi va yangrash kuchini ifodalaydi.

Bugun biz musiqaning **yorqin**, **tantanavor** va **jonli** bo'lishiga xizmat qiladigan **mis damli** va **zarbli cholg'ular** bilan tanishamiz.

Musiqachi mundshtukka havo puflaganida, mis damli cholg'ular jonlanadi. Ular aksariyat hollarda **jezdan** – yaltiroq sariq metalldan yasalgani bois mis cholg'ular deb nomlanadi. Bu kabi cholg'ular, ayniqsa orkestr tomonidan marsh ijro etilganda, **baland**, **mardonavor** va **qizg'in** yangraydi.



Trubá mis damli cholg'ular ichida eng kichigi bo'lishiga qaramay, **eng yuqori tovushga** ega. Agar uni yoyib ochsak, **uzunligi deyarli ikki metr**ga



13

yetadi. Ushbu cholg'u klapanlariga bosish orqali chalinadi.



Valtórna ham baland, ham past ovozda yangrashi mumkin. U juda **mayin** va **yoqimli tovushga** ega. Uning uzun naychasi halqa kabi o'ralgan bo'lib, musiqachi cholg'uning katta og'ziga qo'lini kiritib chaladi.

Orkestrda valtorna mis va torli



14

cholg'ularning tovushlarini uyg'unlashtiradi.

Trombón S harfini hosil qiladigan ikkita qayrilma quvurdan iborat.

Musiqachi quvurni oldinga va orqaga harakatlantirib, tovushni o'zgartiradi.

Agar juda baland ovozli ijro talab etilsa, trombon buning uddasidan chiqa oladi.

15



Túba mis damli cholg'ular ichida eng kattasi, u past tovushga ega. U orkestrda kuchli asos bo'lib xizmat qiladi va musiqaga chuqur "nafas" bag'ishlaydi. Tubasiz orkestr to'liq va kuchli yangray olmaydi.

16



Zarbli cholg'ular



Zarbli cholg'ular musiqaning yuragi bo'lgan **ritmni** yaratadi. Ular tayoqchalar, to'qmoqchalar yoki qo'llar yordamida chalinadi. Ular ohangli (notalar bo'yicha chalinadi) va shovqinli (aniq nota bermaydi) kabi turlarga bo'linadi.

Ksilofón pianino klavishlariga o'xshaydi. Yog'och taxtachalarga to'qmoqchalar yordamida uriladi va natijada jarangli, quvnoq tovush hosil bo'ladi.

17





Litávra – ustiga tarang qilib charm tortilgan katta mis pallalar. Odatda, u to'rtta bo'ladi va bitta musiqachi tomonidan chalinadi. Litavra



tantanavor yangraydi va orkestrga ritmni ushlab turishga yordam beradi.

Shovqinli cholg'ular ritm va tovush effektini yaratadi.

Ularga **barabanlar, likopchalar, kastanetlar, marakaslar,**

childirma, uchburchak va boshqalar kiradi. Ular kuy chalmaydi, ammo musiqaning yorqin, jonli va qizg'in bo'lishiga yordam beradi.



Shovqinli cholg'ular musiqa sur'atini yaratib, musiqachilarning birgalikdagi uyg'un ijrosini ta'minlaydi. Ulardan ko'pincha orkestrda, xalq qo'shiqlarida, bayramlar va raqslarda foydalaniladi. Likopchalarning jarangi, barabanning taqillashi, uchburchakning tovushi musiqaga tantanavorlik, quvnoqlik yoki keskinlik bag'ishlashi mumkin.



marakáslar



kastanétlar



uchburchak



likopchalar



barabán



childirma

Royál torli va zarbli cholg'ular olamini birlashtiradi. Uning ichida torlar tarang qilib tortilgan, ularning ustiga esa to'qmoqchalar urilib, tovush chiqaradi. Shu bois ham royal **torli-zarbli cholg'u** deb ataladi. Uni ham baland, ham past tovushda chalish mumkin. Bunda u xuddi biz bilan so'zlasha-yotgandek tuyuladi.

20



Royálda 200 dan ortiq tor bor!

Odatda, taxminan **220–230 ta tor** bo'ladi. Pianinochi bitta klavishni bosganida, bir vaqtning o'zida **2–3 ta tor** yangrashi mumkin.

Eng katta royál xuddi mashinaga o'xshaydi.

Konsertda chalinadigan royal **uzunligi 2,5 metr, og'irligi esa 400 kg dan ortiq** bo'lishi mumkin.

- **Mis damli cholg'ular** truba, valtorna, trombon, tuba kabi yaltirab turadigan kuchli cholg'ulardir.
- **Zarbli cholg'ular** ritmni yaratib, musiqa bezak beradi. Ularsiz simfonik orkestrning yangrashi bunday hissiy ifodaga ega bo'la olmas edi.



1. Nima uchun **mis damli cholg'ular** bunday nom olgan?
2. Nima uchun orkestrga **zarbli cholg'ular** kerak?
3. Nega **royal torli-zarbli cholg'u** deb ataladi?



Ushbu cholg'ular haqida 3–5 ta qiziqarli ma'lumot toping va gapirib bering.

